

XX ASR INGLIZ ADABIY AN'ANALARIDA FOLKLOR MOTIVLARINING TALQINI J.R.R. TOLKIEN IJODI MISOLIDA

Farxodova Shahzoda

Samarqand davlat chet tillar instituti 2-bosqich magistr

Abstract: XX asr ingliz adabiyotida folklor an'alarining badiiy talqini muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada J.R.R. Tolkien ijodi misolida folklor motivlarining zamonaviy adabiyotdagi talqini tahlil qilinadi. Tolkien filolog olim sifatida qadimgi ingliz va skandinav folklorini chuqur o'rgangan va bu bilimlarini badiiy ijodida qo'llagan. Maqolada uning "Hobbit" asari misolida xalq ertaklariga xos obrazlar (oddiy qahramon, donishmand chol, yer osti maxluqlari) va motivlar (sayohat, topishmoq, xazina, sehrli buyum) tahlil qilinadi. Shuningdek, Tolkiening "On Fairy-Stories" essesi asosida ertaklarning uch vazifasi – qochish, tasalli va haqiqatni anglash – yoritiladi. Tolkien folklor materialini oddiy qayta hikoya qilmagan, balki uni zamonaviy muammolar bilan bog'lab, psixologik chuqurlik va yangicha talqin bilan boyitgan.

Keywords: J.R.R. Tolkien, folklor motivlari, "Hobbit", ertak an'analari, mifologiya, xalq og'zaki ijodi, qahramonlik eposi, "On Fairy-Stories".

XX asr ingliz adabiyotida folklor an'analari badiiy talqini alohida o'rin egallaydi. Bu jarayon ayniqsa J. R. R. Tolkien ijodida yorqin namoyon bo'ladi. Tolkien nafaqat mashhur yozuvchi, balki tilshunos, filolog va qadimgi german adabiyoti bo'yicha mutaxassis bo'lgan. Uning ilmiy faoliyati asosan anglo-sakson madaniyati, qadimgi ingliz tili hamda o'rta asr epik an'analari bilan bog'liq edi. Shu sababli uning badiiy asarlarida qadimgi ingliz folklori, skandinav mifologiyasi va german epik an'analari chuqur aks etgan. Tolkien folklorni oddiy estetik bezak sifatida emas, balki madaniy xotirani ifodalovchi badiiy tizim sifatida talqin qiladi. Uning asarlarida qadimgi rivoyatlar, qahramonlik eposi, xalqona hikoyalar va mifologik obrazlar yangi badiiy makonda qayta talqin qilinadi.

J. R.R. Tolkinning "Hobbit" (1937) asari XX asr ingliz adabiyotida folklor motivlarining eng yorqin namunalaridan biridir. Olim-filolog sifatida Tolkin xalq og'zaki ijodi, xususan, ingliz va shimoliy Yevropa folklorini chuqur o'rgangan va bu bilimlarini badiiy ijodida mahorat bilan qo'llagan. Uning asarlari nafaqat sarguzashtli hikoyalar, balki chuqur folklor qatlamlariga ega, turli xalqlar madaniy merosini o'zida mujassam etgan va uni zamonaviy o'quvchiga yetkaza olgan nodir namunadir.

J.R.R.Tolkinning folklorga bo'lgan qiziqishi uning ilmiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq. U Oksford universitetida professor sifatida ishlagan va qadimgi ingliz tili hamda

adabiyoti, xususan, "Beovulf" dostoni bilan shug'ullangan. Uning "On Fairy-Stories" nomli mashhur ma'ruzasi folklor va ertaklarning mohiyati haqidagi chuqur nazariy qarashlarni o'z ichiga oladi. Mazkur ma'ruzada Tolkin ertaklarni bolalar uchun yozilgan sodda hikoyalar deb emas, balki insoniyatning eng qadimgi va eng muhim madaniy merosi, xalqning dunyoqarashi, orzu-umidlari va qo'rquvlarining badiiy ifodasi deb bilish kerakligini ta'kidlaydi.

J.R.R. Tolkinning "The Hobbit" asari XX asr ingliz adabiyotida folklor motivlarining eng yorqin namunalaridan biridir. 1937 yilda nashr etilgan ushbu asar dastlab bolalar uchun yozilgan ertak sifatida taqdim etilgan bo'lsa-da, undagi folklor qatlamlari, xalq og'zaki ijodiga xos obrazlar va motivlarning chuqur talqini uni nafaqat bolalar adabiyoti, balki jiddiy adabiy tadqiqotlar obyektiga aylantirgan. Tolkin olim-filolog sifatida xalq og'zaki ijodi, xususan, ingliz va shimoliy Yevropa folklorini chuqur o'rgangan va bu bilimlarini badiiy ijodida mahorat bilan qo'llagan.

Tolkinning fikricha, xalq ertaklari uchta asosiy vazifani bajaradi: qochish, tasalli va haqiqatni anglash. Uning "qochish" deganda, insonning kundalik hayot tashvishlaridan, sanoatlashtirish va texnokratiya bosimidan, hatto o'lim qo'rquvidan ham vaqtincha xalos bo'lishi nazarda tutiladi. "Tasalli" esa ertaklardagi baxtli yakun orqali keladi – yaxshilikning yomonlik ustidan g'alabasi, adolatning qaror topishi inson qalbiga taskin beradi. "Haqiqatni anglash" esa ertaklar orqali inson o'z hayoti va taqdiri haqida chuqurroq fikr yuritish imkoniyatiga ega bo'lishidir. Bu uchlik "Hobbit" asarida to'liq namoyon bo'ladi: Bilbo o'zining qulay va xavfsiz uyidan chiqib, sarguzashtlar olamiga qochadi, asar yakunida yaxshilik g'alaba qozonadi va qahramonlar o'z baxtini topadi, o'quvchi esa insonning jasorati, sadoqati va aql-zakovati haqida chuqur mulohaza yuritish imkoniga ega bo'ladi.

"Hobbit" syujeti xalq ertaklariga xos an'anaviy qurilishga ega. Asar Bilbo Begginsning oddiy va tinch hayoti tasviri bilan boshlanadi. Hobbitlarning Shire mamlakatidagi "Bag End" nomli uyida, hech qanday sarguzashtni xohlamay, farovon va xotirjam hayot kechirayotgan Bilbo obrazi orqali Tolkin xalq ertaklaridagi boshlang'ich vaziyatni – qahramonning oddiy, tinch hayotini – mahorat bilan tasvirlaydi. Bu holatga sehrGAR Gandalfning tashrifi va u bilan birga kelgan o'n uch gnomning paydo bo'lishi o'zgartirish kiritadi. Gnomlar uzoqdagi tog'larda, ajdaho Smaug tomonidan egallab olingan ota-bobolarining xazinasini qaytarib olishga otlanmoqchi bo'ladilar va Bilbodan ularga yo'l boshchi bo'lishni so'raydilar.

Ertaklardagi qahramon odatda bunday taklifni darhol qabul qilmaydi, ikkilanadi, qo'rqadi, ammo oxir-oqibat yo'lga chiqadi. Bilbo ham avvaliga qattiq qarshilik ko'rsatadi, ammo ertasi kuni ertalab gnomlar bilan birga yo'lga chiqib ketadi. Bu esa ertaklardagi "qahramonning uyidan chiqib ketishi" bosqichidir. Shundan so'ng qahramon turli sinovlar, to'siqlar va xavf-xatarlarga duch keladi. Bu sinovlar orqali u o'zining kuchli va zaif tomonlarini kashf etadi,

yangi bilim va tajribalar orttiradi. Bilbo trolidan boshlab, goblinlar, Gollum, o'rgimchaklar, elflar va nihoyat ajdaho Smaug bilan to'qnash keladi. Har bir to'qnashuv uning uchun yangi sinov, yangi imtihondir.

Asar yakunida qahramon o'z uyiga qaytadi, ammo u endi avvalgi oddiy hobbit emas. U ko'p sarguzashtlarni boshdan kechirgan, ko'p narsalarni o'rgangan, jasorat va donolikka ega bo'lgan yangi insonga aylangan. Bu ham ertaklarga xos yakun – qahramon o'zgarib, rivojlanib, yangi sifatlarda uyiga qaytadi. Biroq uning uyi ham avvalgidek emas: Bilbo uyiga qaytganida, uning mol-mulkini sotishayotganligini, uni o'lik deb hisoblab, uyini kim oshdi savdosiga qo'yishayotganligini ko'radi.

Bu holat orqali Tolkin qahramonning o'zgarishi bilan birga, uning atrofidagi dunyo ham o'zgarishini, inson o'z o'rnini qayta topishi kerakligini ko'rsatadi.

"Hobbit"dagi qahramonlarning aksariyati xalq og'zaki ijodidagi an'anaviy obrazlarga borib taqaladi. Tolkin ularni o'ziga xos tarzda qayta ishlagan va ularga yangi hayot baxsh etgan.

Bilbo Beggins obrazi xalq ertaklaridagi "oddiy qahramon" arxetipining eng yorqin namunasidir. U jismonan kuchli emas, jangovar emas, sarguzashtlarni xohlamaydi. Uning asosiy xususiyati – topqirlik, aql-zakovat va axloqiy tanlov qila olish qobiliyatidir. Trolidan qutulishda u ularni vaqt cho'zish orqali chalg'itadi, Gollum bilan topishmoq o'ynab, undan qutuladi, o'rgimchaklardan qilich va ayyorlik bilan xalos bo'ladi, ajdaho Smaug bilan suhbatda esa uning zaif tomonini bilib oladi. Bilboning eng katta jasorati – jang qilish emas, balki to'g'ri qaror qabul qilishdir. U xazinadan o'z ulushini olib, tinchlikni tanlaydi, Arkenstone toshini gnomlarga qarshi ishlatib, urushning oldini olishga harakat qiladi. Bu orqali Tolkin qahramonlikning yangi turini – aql, odob va tinchliksevar jasoratni ilgari suradi.

Gnomlar obrazi ingliz va skandinav xalq og'zaki ijodidagi "yer osti aholisi" haqidagi e'tiqodlar bilan bog'liq. Xalq ertaklarida gnomlar yer ostida yashovchi, konchilik va hunarmandchilikda mohir, boylik to'plashni yaxshi ko'radigan maxluqlar sifatida tasvirlanadi. Tolkin bu an'anaviy xususiyatlarni saqlab qoladi: uning gnomlari ham konchilik va metallga ishlov berishda mohir, ular ulkan xazinalarga ega, ammo ular ayni paytda o'ziga xos xarakter va shaxsiyatga ega bo'lgan qahramonlardir. Gnomlarning asosiy kamchiligi – xazinaga bo'lgan haddan tashqari muhabbat va ishonchsizlikdir. Ular Bilboni doim ham to'liq ishonch bilan qabul qilmaydilar, ba'zida unga shubha bilan qaraydilar. Bu esa ularning folklorik kelib chiqishi bilan bog'liq – xalq e'tiqodlarida gnomlar sirli, ehtiyotkor va ba'zida xudbin maxluqlar sifatida tasvirlangan.

Gandalf obrazi xalq ertaklaridagi "donishmand chol" arxetipining timsolidir. U qahramonga yo'l ko'rsatadi, uni sinovlardan o'tkazadi, kerak paytda yordam beradi, lekin ko'pincha uning o'zi hal qilishi kerak bo'lgan vaziyatlarda chetda turadi. Ertaklardagi bunday obrazlar odatda sehrli kuchga ega, lekin ular bu kuchni qahramonning o'rniga ishlatmaydi,

balki unga o'z kuchini topishga yordam beradi. Gandalf ham Bilboni gnomlar bilan tanishtirib, uni sayohatga undaydi, kerak paytda paydo bo'lib, ularni qutqaradi, ammo asosiy sinovlarni Bilbo o'zi yengib o'tishi kerak. Gandalfning so'zlari bilan aytganda, u Bilboni "bo'sh joy" ni to'ldirish uchun emas, balki uning o'zida bor bo'lgan kuch va qobiliyatlarni kashf etishiga yordam berish uchun tanlagan.

Gollum obrazi esa folklor va xalq e'tiqodlaridagi "yer osti maxluqi" haqidagi tasavvurlar bilan bog'liq. U yorug'likni yoqtirmaydi, zulmatda yashaydi, sirli va xavflidir. Gollumning ikki tomonlama tabiati – undagi "Sméagol" va "Gollum" o'rtasidagi kurash – xalq ertaklaridagi "egizaklar" yoki "soya" motivi bilan bog'liq. Gollum Bilbo bilan topishmoq o'ynaydi, bu esa xalq og'zaki ijodidagi qadimgi an'ananing bir qismidir. Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining eng qadimgi janrlaridan biri bo'lib, ular orqali donolik, ziyraklik va topqirlik sinovdan o'tkazilgan. Bilbo va Gollum o'rtasidagi topishmoq musobaqasi nafaqat qiziqarli epizod, balki qahramonning aql-zakovat sinovidan o'tishidir.

"Hobbit"da xalq og'zaki ijodiga xos ko'plab motivlar uchraydi. Mazkur motivlar asarga chuqurlik va universal ma'no bag'ishlaydi.

Sayohat motivi asarning asosiy syujet chizig'idir. Bilboning o'z uyidan boshlanib, uzoq o'lkalar, baland tog'lar, qalin o'rmonlar va zulmatli g'orlar orqali davom etib, yana o'z uyiga qaytishi bilan yakunlanadigan sayohati xalq ertaklaridagi "qahramonning sayohati" motivining klassik namunasidir.

Bu sayohat nafaqat geografik, balki ma'naviy hamdir: Bilbo har bir sinovdan o'tib, yangi bilim va tajribalar orttiradi, o'zining ichki kuchini kashf etadi, dunyoqarashi kengayadi. Sayohat davomida u nafaqat jismoniy to'siqlarni, balki o'zining qo'rquvlari va shubhalarini ham yengib o'tadi. Bu esa xalq ertaklaridagi qahramonning ruhiy kamoloti bilan bog'liq.

Topishmoq motivi Bilbo va Gollum o'rtasidagi taniqli epizodda namoyon bo'ladi. Topishmoqlar xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va eng keng tarqalgan janrlaridan biridir. Ular orqali xalq o'zining dunyoqarashini, tabiat va hayot haqidagi tushunchalarini, hazil-mutoyiba va donoligini ifodalagan. Qadimgi xalqlarda topishmoqlar ko'pincha marosimlarning bir qismi bo'lgan, to'g'ri javob topish insonning aql-zakovati va donoligini ko'rsatgan. Tolkin bu epizodda Bilboning hayotini topishmoqlar o'yiniga bog'lab qo'yadi – agar u topishmoqlarga to'g'ri javob topsa, Gollum unga yo'l ko'rsatadi, aks holda uni yeb qo'yadi. Bilbo topqirlik va ziyraklik bilan barcha topishmoqlarga javob topadi va eng muhimi, oxirgi, "mening cho'ntagimda nima bor?" degan savolga javob topish orqali Gollumning sehrli uzugini qo'lga kiritadi. Bu epizod orqali Tolkin so'z va aqlning jismoniy kuchdan ustunligini ko'rsatadi.

Xazina va uning ta'siri motivi asarning markaziy mavzularidan biridir. Gnomlarning ajdaho Smaugdan qaytarib olmoqchi bo'lgan xazinasini nafaqat moddiy boylik, balki ma'naviy

sinovdir. Bu motiv xalq ertaklarida keng tarqalgan bo'lib, unda xazina ko'pincha la'natlangan, unga ega bo'lish baxtsizlik keltiradi, odamlarni ochko'zlik va nizolarga olib keladi. Tolkin bu motivni to'liq saqlab qoladi: gnomlar xazinani topgandan keyin ular o'rtasida nizo kelib chiqadi, ular elflar va odamlar bilan urushishga tayyor turadilar. Bilbo esa bu ochko'zlik va nizolar girdobida aqlini yo'qotmagan yagona qahramondir. U o'z ulushini olib, tinchlikni tanlaydi va Arkenstone toshini gnomlarga qarshi ishlatib, urushning oldini olishga harakat qiladi. Bu orqali Tolkin xazinaning qadri moddiy emas, ma'naviy ekanligini, haqiqiy boylik do'stlik, sadoqat va tinchlikda ekanligini ko'rsatadi.

Sehrli buyumlar motivi asarda bir necha ko'rinishda uchraydi. Eng muhimi, Gollumdan topilgan sehrli uzukdir. Uzuk egasini ko'rinmas qiladi, bu esa Bilboga ko'p sinovlarda yordam beradi. Sehrli buyumlar xalq ertaklarida keng tarqalgan bo'lib, ular qahramonga qiyin vaziyatlarda yordam beradi, uni xavf-xatarlardan asraydi. Tolkinning uzugi boshqa ertaklardagi sehrli buyumlardan bir muhim jihati bilan farq qiladi: u egasiga nafaqat yordam beradi, balki unga ta'sir ham ko'rsatadi, uni o'ziga tortadi. "Hobbit"da bu ta'sir hali kuchli emas, lekin keyingi "The Lord of the Rings" asarida u asosiy mavzuga aylanadi. "Hobbit"da uzuk Bilboga ko'p marta yordam beradi: u goblinlardan qochishda, o'rgimchaklardan xalos bo'lishda, elflar qamoqdan chiqishda undan foydalanadi. Bu orqali Tolkin sehrli buyumlarning ikkilamchi tabiatini – ular yordam beradi, lekin ayni paytda sinov ham bo'ladi, degan g'oyani ilgari suradi.

Uchlik qonuni xalq ertaklarida keng tarqalgan bo'lib, unda voqealar, sinovlar yoki qahramonlar ko'pincha uch marta takrorlanadi. "Hobbit"da bu qonun bir necha marta namoyon bo'ladi: Bilbo gnomlarga qo'shilishdan avval uch marta ikkilanadi, sayohat davomida u uch marta qutqaruvchi rolini o'ynaydi (toldan qutqarish, goblinlardan qochish, o'rgimchaklardan xalos qilish), asarning kulminatsion nuqtasida uch tomon – gnomlar, elflar va odamlar o'rtasida mojaro kelib chiqadi va hokazo. Uchlik qonuni ertaklarda kompozitsion jihatdan muhim rol o'ynaydi, voqealarni uyg'unlashtiradi va o'quvchiga tanish ritmni yaratadi.

"Hobbit"ning tili va uslubi ham xalq ertaklari an'analari bilan chambarchas bog'liq. Tolkin sodda, tushunarli, ammo obrazli va ifodali tilda yozadi. Uning tili xalq ertakchilarining jonli, tabiiy va jozibali uslubini eslatadi. Asar "In a hole in the ground there lived a hobbit" degan mashhur jumla bilan boshlanadi. Mazkur jumla xalq ertaklarining an'anaviy boshlanishini eslatadi, ammo ayni paytda yangi va originaldir.

Tolkin hikoya davomida o'quvchi bilan bevosita muloqot qiladi, unga ba'zi narsalarni tushuntirib beradi, ba'zan hazillashadi, ba'zan esa ogohlantiradi. Bu usul xalq ertakchilariga xos bo'lib, ular tinglovchilar bilan jonli aloqada bo'lib, hikoyani ularning reaksiyasiga qarab o'zgartirib, to'ldirib borganlar. Tolkin bu an'anani saqlab qoladi va o'quvchi bilan jonli,

samimiy muloqot o'rnatadi. Masalan, u ba'zi joylarda "You may think... but you would be wrong" kabi iboralarni ishlatib, o'quvchini hikoyaga jalb qiladi, uning fikrlashiga undaydi.

Tolkinning she'rlari va qo'shiqlari ham xalq og'zaki ijodi an'analarini bilan bog'liq. Gnomlarning yo'l qo'shig'i, elflarning she'rlari, goblinlarning qo'shiqlari – bularning barchasi xalq qo'shiqlari va balladalarining ta'sirida yozilgan. Bu she'r va qo'shiqlar nafaqat hikoyani bezaydi, balki qahramonlarning xarakterini ochishga, ularning madaniyatini, dunyoqarashini ko'rsatishga xizmat qiladi. Gnomlarning qo'shiqlari ularning konchilik va hunarmandchilikka bo'lgan muhabbatini, elflarning she'rlari ularning tabiatga, go'zallik va san'atga bo'lgan yaqinligini, goblinlarning qo'shiqlari esa ularning yovuz va shafqatsiz tabiatini ifodalaydi.

"Hobbit"da qishloq jamiyatining tasviri – hobbitlarning Shire mamlakati – alohida o'rin tutadi. Shire obrazi orqali Tolkin ingliz qishloq hayotining an'anaviy, patriarxal shaklini, xalqning oddiy va sokin hayotini ifodalaydi. Hobbitlar dehqonchilik bilan shug'ullanadigan, uy-ro'zg'or va farovonlikni qadrlaydigan, urf-odatlariga sodiq, sarguzasht va o'zgarishlarni yoqtirmaydigan xalqdir. Ularning jamiyati xalq ertaklaridagi "ideal jamiyat"ga o'xshaydi – unda hamma bir-birini taniydi, bir-biriga yordam beradi, an'anaviy bayramlar va marosimlar nishonlanadi, hayot tinch va xotirjam oqadi.

Bilbo Shiredan chiqib, sayohatga o'tlanishi bilan u o'zining bu qulay va xavfsiz muhitidan chiqib, notanish va xavfli dunyoga qadam qo'yadi. Bu qarama-qarshilik – Shire va tashqi dunyo o'rtasidagi ziddiyat – asarning asosiy konfliktlaridan biridir. Bilbo sayohatdan qaytganidan keyin Shire unga avvalgidek tuyulmaydi. U kichkina va tor bo'lib ko'rinadi, u erda sodir bo'layotgan mayda-chuyda nizolar va muammolar unga ahamiyatsizdek tuyula boshlaydi. Bu orqali Tolkin insonning o'zgarishi, yangi tajribalar orttirishi uning o'z ona yurtiga bo'lgan munosabatini ham o'zgartirishini ko'rsatadi.

J.R.R. Tolkinning "Hobbit" asari XX asr ingliz adabiyotida folklor motivlarining eng muvaffaqiyatli badiiy talqinlaridan biridir. Olim-filolog va yozuvchi sifatida Tolkin o'zining chuqur folklor bilimlarini badiiy ijod bilan uyg'unlashtirib, o'ziga xos "mifopoetik" dunyo yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Asarda xalq og'zaki ijodiga xos ko'plab motivlar – sayohat, topishmoq, xazina, sehrli buyum, uchlik qonuni – mahorat bilan qo'llangan. Qahramonlar tizimi xalq ertaklaridagi an'anaviy obrazlar – oddiy qahramon, donishmand chol, yer osti aholisi – asosiga qurilgan bo'lib, ular zamonaviy, psixologik chuqurlikka ega obrazlarga aylantirilgan. Asarning tili va uslubi xalq ertakchilari an'alarini davom ettiradi, sodda, obrazli va jonli ifodalar bilan boyitilgan.

Folklor motivlari "Hobbit"da bir qancha muhim funksiyalarni bajaradi: ular qahramonlar xarakterini ochishga, syujet rivojini ta'minlashga, axloqiy-tarbiyaviy saboqlarni berishga, universal mavzularni ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Tolkin an'anaviy folklor

motivlarini oddiygina takrorlamaydi, balki ularga yangicha talqin beradi, ularni zamonaviy muammolar bilan bog'laydi, psixologik chuqurlik bilan boyitadi. Ayniqsa, qahramonlik konsepsiyasini qayta ko'rib chiqishi – kuch va jangovarlik emas, balki aql-zakovat, topqirlik va axloqiy tanlovlarni birinchi o'ringa qo'yishi – folklor an'anasiga yangicha yondashuvdir.

Tolkinning "Hobbit"i nafaqat bolalar adabiyotining ajoyib namunasi, balki chuqur folklor qatlamlariga ega, ingliz va shimoliy Yevropa xalq og'zaki ijodi an'analarini o'zida mujassam etgan va uni zamonaviy o'quvchiga yetkaza olgan nodir asardir. Mazkur asar XX asr ingliz adabiyotida folklorning o'rni va ahamiyatini o'rganuvchi tadqiqotchilar uchun boy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolkien, J.R.R. (1937). *The Hobbit*. George Allen & Unwin.
2. Tolkien, J.R.R. (1947). "On Fairy-Stories". In *Essays Presented to Charles Williams*. Oxford University Press.
3. Carpenter, H. (1977). *J.R.R. Tolkien: A Biography*. George Allen & Unwin.
4. Shippey, T. (2000). *J.R.R. Tolkien: Author of the Century*. HarperCollins.
5. Chance, J. (2001). *Tolkien's Art: A Mythology for England*. Revised ed. University Press of Kentucky .
6. Flieger, V. (2017). *There Would Always Be a Fairy-tale: More Essays on Tolkien*. Kent State University Press .
7. Flieger, V. & Anderson, D.A. (eds.) (2008). *Tolkien, On Fairy-stories*. HarperCollins .
8. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. (2000-2005). Tolkien, J.R.R. Toshkent.